ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

SHAROF BOSHBEKOVNING “TEMIR XOTIN”ASARIDA RAMZIY OBRAZLAR TIMSOLI

Dilnoz Suleymanova Ismoil qizi
Jizzax viloyati
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Email: suleymanovadilnoza2710@.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23361509

Annotatsiya:
Ushbu maqolada Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asarida ishtirok etgan ramziy obrazlar bilan ishlanadi. Komediyaning asl mazmuni, undagi ba’zi obrazlar orqali ochib berilgan achchiq haqiqatlar yoritib beriladi.
Kalit so’zlar: Sharof Boshbekov, Alomatxon, Qo’chqorboy, Qumri, Olimjon, paxta, qishloq ayollari, metaforik ramz,mustamlaka, sadoqat ramzi,komediya.

O’zbek adabiyotida o’ziga yarasha nom olgan, taniqli ijodkorlardan biri bo’lgan Sharof Boshbekov o’zining “Temir xotin” komediyasini 1980-yilda yozdi. Ushbu drama jiddiy komediya hisoblanib, o’quvchilar va tomoshabinlar ko’nglidan yaxshigina joy olgan. Asar markazida qo’pol, hech kimni tushunishni xohlamaydigan, oilasini qadrlamagan Qo’chqorboy obrazi turadi. Bu nohaqliklardan charchagan xotini Qumri farzandlarini olib uydan chiqib ketadi. Qo’chqorvoyning uyiga olim jiyani Olimjon yasagan texnikasini, robot-ayolni sinovdan o’tkazish uchun olib keladi. Bu Alomat robotni ko’rib Qo’chqorvoyda uni xotin qilib olish niyati paydo bo’ladi. Uyida olib qolib, uy yumushlarini Alomatga topshiradi. Biroq, robot-ayolda hech qanday insoniy fazilat yo’qligidan, ishlarning o’sha davrda juda o’g’ir bo’lganligidan uning zanjirlari erib, ishdan chiqadi. Yakunda esa Qo’chqorvoy o’z xatosini tushunib, oilasiga qaytadi. Ushbu komediyada ramziy obraz sifatida quyidagi ishtirokchilarni keltirib o’tamiz:

-Alomatxon: O’zbek ayollarining timsolida. Mustamlaka davrida ayollarga ham qanchalik qiyin bo’lganligi, tun-u kun tinmay, gap qaytarmay hamma buyruqlarni so’zsiz bajarishi va eng asosiysi bo’lgan paxtani odamlardan 10barobar ko’p terishi kabi jihatlaridan qiyoslay olamiz.

-Qo’chqorvoy: Tanazzul va qaramlik metaforik ramzi bo’lib, u asarda o’z oilasini unutdi. Mustaqil fikr ham yurita olmadi. Ayolini faqatgina uyidagi xizmatkor sifatida ko’rdi.

-Qumri: Sodiqlik va mehnatkash o’zbek ayoli ramzi. Qumri obrazi orqali haqiqiy insoniylik, temirdan insonning qay darajada ustun ekanligi ko’zlandi.

-Olimjon: O’ylamasdan texnologiya yaratdi. Natijada, shuncha yillik mehnati samarasiz bo’ldi. Fikr yuritmasdan ish boshlash, manaviyatsiz ilm-fan halokatli natija olib kelishi ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, sho’ro davrida nafaqat yurtimizning erkaklari, balki ayollari ham birdek zaxmat chekishgan. Bir tomondan, Alomatning portlab ketishida kuni kelib insonlar ham zug’umdan qutulib ketishi nazarda tutilgan bo’lsa, boshqa tomondan hech qanday texnika insoniy fazilatlarga, his-tuyg’ularga ega bo’la olmasligi mavzuning asosiy g’oyasida yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshbekov Sh Temir xotin.-Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi: darslik.-Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022.400b
3. Jalilov B. O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari.-1984
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Adabiyot. 9-sinf.-Elektron darslik. Sh Boshbekov "Temir xotin" bo'limi.
5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: darslik.-Toshkent: A Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti,2004.